

International Scientific Conference

International Conference on Innovative Development of Education 2022/10

ISSN: 2181-3515

ERUS.UZ

20 September, 2022 YEAR



PKP | INDEX

Uzbekistan, Tashkent

“Educational Research in Universal Sciences”



“INTERNATIONAL CONFERENCE ON INNOVATIVE DEVELOPMENT OF EDUCATION 2022/10”

www.erus.uz

Languages of publication: o‘zbek, english, русский, қазақ, тоҷик

**TASHKENT, UZBEKISTAN
2022/ SEPTEMBER 20**

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI ILMIY-ADABIY MUHITIDA MIRZO SALIMBEKNING TUTGAN O‘RNI

Qurbonov Murodjon Dehqonboy o‘g‘li

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Mirzo Salimbekning ilmiy, adabiy hamda davlat arbobi sifatidagi faoliyati, yaratgan asarlari, bugungi kunda ularning o‘rganilganlik darajasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: diplomatik, missiya, zakotchi, elchi, ilmiy me’ros, tazkira, esdaliklar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается научная, литературная и государственная деятельность Мирзо Салимбека, его произведения, уровень их изучения на сегодняшний день.

Ключевые слова: дипломатия, миссия, закатчи, посол, научное наследие, тазкира, воспоминания.

ANNOTATION

This article discusses Mirzo Salimbek’s scientific, literary and statesman activities, his works, and the level of their study today.

Key words: diplomatic, mission, zakatchi, ambassador, scientific heritage, tazkira, memories.

Mirza Salimbek Ibn Muhammad Rahim (1850—1930) — [Buxoro amirligi](#) va Buxoro respublikasida yashagan tarixchi, shoir, davlat arbobi, diplomat. Muhtaram ota-onaning o‘g‘li, mehnat faoliyatini ulamolikdan boshlagan. U Buxoro amirligining

ko'pgina tumanlari va viloyatlari hukmdori bo'lgan, amirning diplomatik missiyalarini bajargan, inglizlar bilan muzokaralarda ham qatnashgan. RSFSR qo'shinlarining Buxoro operatsiyasidan so'ng hibsga olinib, bir yildan so'ng ozodlikka chiqdi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi qoshida ma'mur bo'lib ishladi, tarixiy tadqiqotlarda qatnashdi, eski kitoblar kutubxonasiga rahbarlik qildi. Mirzo Salimbek o'z xotiralarida Buxoro amirligi va uning tarixi, Yevropa mustamlakachilari, inqilobchilar va Buxoro amirligining o'zida islohotlar tarafdorlari bilan bo'lgan og'ir munosabatlarini tasvirlaydi. Mirzo Salimbek ijodi Buxoro amirligi tarixiga, undagi hayotga sovet, rus yoki chet el tarixchilari kitoblarida tasvirlanganidek emas, balki g'ayrioddiy rakursdan, ichkaridan qarash imkonini beradi. Mirzo Salimbek amirlikning Toshkentdagi savdo vakili (1873-85); Yakkabog' (1893-98), Nurota (1898—1902), Boysun (1902—05), Sherobod (1905—09), Shahrisabz (1910—13), Chorjo'y (1920) viloyatlari hokimi, Buxoro mirshabi (1889) lavozimlarida faoliyat yuritgan. 1885-yilda amir Abdulahad jo'natgan elchilar tarkibida Peterburgda bo'lgan. 1920-yil 29-avgustda qizil qo'shinlar tomonidan hibsga olingan va amirlikning boshqa amaldorlari bilan Sibirga surgun qilingan. 1922—24 yillarda Buxoro respublikasi "Avkof", "Anjumani tarix" tashkilotlarida ishlagan. Kolesov boshliq qizil qo'shinlarning Buxoroga hujumi paytida (1918-yil, mart) amirning Kolesov bilan muzokara olib borgan vakillar hay'atiga rahbarlik qilgan, keyin u devonbegi mansabiga, zakotchi lavozimiga ko'tarilgan (1917—20).

Mirzo Salimbekning ilmiy merosi ham boy bo'lib bir qancha asarlarni yozib qoldirgan. Ular quyidagilar :

- "Tarixi Salimiy" (qadimdan amirlikning 1920-yilgacha tarixi),
- "Kashkuli Salimiy" ("Salimiyning darveshlar xaltasi") (1913, Toshkent),
- "Jomei gulzor" ("Gulzor majmui") she'riy asar,
- "Ahodisil e'mol" ("Amaldagi hadislar") (1911, Buxoro),
- "Durratil voizin" ("Voizlar sochgan durlar") (1909, Buxoro),

"Muxbirul-hikoyot" ("Xabar beruvchining hikoyalari") (1908, Toshkent), "Ka'bulaxbor hikoyalari" (1909, Toshkent).

Mirzo Salimiy tazkira ham tuzgan. Qori Rahmatulla Vozexning "Tuhfatul-ahbob" ("Dilga yaqin kishilarga tuhfa") tazkirasini nashrga tayyorlashda, o'ziga zamondosh 100 ga yaqin shoirlar haqidagi ma'lumotlarni unga ilova qilgan¹. Muallifning yuqorida keltirilgan dastlabki ikki asari puxta o'rganilgan, ammo boshqa asarlarni ham o'rganish zarurligicha qolmoqda.

Mirzo Salimbekning "Tarixi Salimiy" qo'lyozmasi asosan Buxoro amirligi tarixining Mang'itlar sulolasining so'nggi vakillari hukmronligi davridagi voqealarni o'z ichiga oladi. Mirzo Salimbekning "Tarixi Salimiy" asari muhim tarixiy manba bo'lib, Buxoro amirligida hukmronlik qilgan so'nggi amirlar faoliyati, Buxoro amirligidagi shaharlarning hayoti, moddiy madaniyati, hunarmandchiligi, amirlikning boy tarixi haqida ma'lumotlar berilgan.

"Tarixi Salimiy"da Mirzo Salimbek zamondoshlari ijodida uchramaydigan ko'plab ma'lumotlar mavjud. Bu faqat Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixiga oid ma'lumotlar emas, balki tarixiy geografiya, etnografiya va me'morchilik tarixi hamda alohida beklar tarixiga oid ma'lumotlardir².

«Kashkuli Salimiy(Muttaqadimin va muttaaxirin)» asarida Odam alayxissalomdan Iso alayxissalomgacha o'tgan ayrim payg'ambarlar, Peshdodiyon tabaqasining zikri, Ashkoniyon, Sosoniylar Hazrat Hotam al- Nabiylar salolloxu alayxi vassalam, Roshiddin xalifaligi, Ummaviylar, Abbosiylar, Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazm shoxlar, Chingizxon, Sohibqiron Amir Temur, o'zbek podshohlari, Ashtarxoniylar, Mang'itlar Amir Abdulahad podshohligi, Rossiya davlati podshohlari va imperatorlari, Totor xonligining

¹ Бухорий А.Р. Рахимов К. Мирзо Салимбек колдирган мерос // Мозийдан садо, 2006. № 1.

² Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского Н.К.Норкулов. — Тошкент. 2009.

rus knyazlariga hujumi, Usmonli turk davlati tarixi bayon etilgan³. Bu kitob ilmiy jihatdan puxta o'rganilib, 2003-yilda nashr qilindi.

Mirzo Salimning asarlarida o'sha davr Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, xalqining turmush tarzi va yashash sharoitlari yorqin aks ettirilgan. Bundan tashqari amirlikdagi siyosiy tuzum va uning barbod bo'lishi va Rossiya-Buxoro munosabatlari haqida so'z yuritiladi. Salimiy o'zi guvoh bo'lgan har bir voqea, hodisadan ibratli xulosalar chiqaradi. «Kashkuli Salimbek»da muallifning o'zi guvoh bo'lgan tarixiy voqealar ancha. Xususan Buxoroyi sharifga yevropaliklarning munosabati, Buxoroyi sharifning qanaqaligini ulardan birini surashi va Salimbekningunga bergan munosib javobi-shularning hammasi muallifning aqli, farosati, e'tiqodiy-ma'naviy olamining butunligidan dalolat berib turadi.

Mirzo Salimbekning asarlarini o'rganish ham bugunning dolzarb mavzularidan biri hisoblanib, uni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etib, manbalar, arxiv hujjatlari orqali xolislik bilan yaqindan o'rganib, fanga yangiliklar kiritish, bugungi va kelajak avlodni haqqoniy tarixdan boxabar etish zarurligini bildiradi. Shuningdek, Mirzo Salimbek shaxsiyatini ham o'rganish, uning murakkab tarixiy sharoitdagi faoliyati alohida tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)

1. Кашкули Салимий (таворихи муттақадимин ва муттаахирин), Нарзулло Йўлдошев таржимаси, “Бухоро” нашриёти, 2003 йил. Б.342.
2. Ражабов К, Иноятов С. Бухоро тарихи. - Тошкент. 2016.
3. Бухорий А.Р. Рахимов К. Мирзо Салимбек колдирган мерос // Мозийдан садо, 2006. № 1.
4. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского Н.К.Норкулов. — Тошкент. 2009.

³Кашкули Салимий (таворихи муттақадимин ва муттаахирин), Нарзулло Йўлдошев таржимаси, “Бухоро” нашриёти, 2003 йил. Б.5.